

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ  
DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI  
RIVOJIDA TUTGAN O'RNI**

**uluslararo ilmiy-nazariy  
konferansi materiallari**

**UO'K: 821.51.1.11**

**KBK: 83.8(5Y36)2**

**Z-45**

**Mas'ul muharrirlar:**

**Shuhrat SIROJIDDINOV,**

filologiya fanlari doktori, professor

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili

va adabiyoti universiteti rektori

**Zokirjon MASHRABOV,**

geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi, professor,

Bobur nomli xalqaro jamoat fondi raisi

**Tahrir hay'ati:**

Sirojiddin Sayyid (O'zbekiston), Elisabetta Ragagnin (Italiya), Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Tanju Oral Seyhan (Turkiya), Darya Jigulskaya (Rossiya), Farhad Rahimi (Eron), Vahob Rahmonov (O'zbekiston), Hamidulla Dadaboyev (O'zbekiston), Rukhsana Iftikhar (Pokiston), Islam Jemeney (Qozog'iston), Hamidulla Boltaboyev (O'zbekiston), Qosimjon Sodiqov (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Ne'matilla Otajonov (O'zbekiston), Abdumajid Madraimov (O'zbekiston), Nusratulla Jumaxo'ja (O'zbekiston), Omonulla Bo'riyev (O'zbekiston), Sultonmurod Olim (O'zbekiston), Iqboloy Adizova (O'zbekiston), Burobiya Rajabova (O'zbekiston), Shuhrat Hayitov (O'zbekiston), Odina Jamoldinova (O'zbekiston), Zulxumor Xolmanova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Ziyoda Teshaboyeva (O'zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Otabek Jo'raboyev (O'zbekiston), Marg'uba Abdullayeva (O'zbekiston), Oysara Madaliyeva (O'zbekiston), Hilola Nazirova (O'zbekiston), Nodirbek Jo'raqo'ziyev (O'zbekiston), Sabohat Bozorova (O'zbekiston,) Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 25-yanvardagi "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-20-sonli Qaroriga ko'ra o'tkazilayotgan "Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o'rni" mavzusidagi uluslararo ilmiy-nazariy konferansi materiallari jamlangan. To'plamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, faoliyati, adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyot rivojidagi o'rni, adabiy-lingvistik, tarixiy-sotsiologik tadqiqi, shuningdek, Bobur va boburiylar siyosining zamonaviy adabiyotdagi badiiy talqini, adabiy ta'sir va izdoshlik masalalariga bag'ishlangan maqolalar o'rinni o'rniga qo'shilgan. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavriat talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljalangan.

*Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.*

**ISBN 978-9910-9964-2-9**

**THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE, AND  
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK  
LANGUAGE AND LITERATURE**

**UZBEKISTAN WRITERS UNION**

**BABUR INTERNATIONAL PUBLIC FOUNDATION**

**The Proceedings of the International Scientific-  
Theoretical Conference**

**«THE IMPACT OF ZAHIR AD-DIN  
MUHAMMAD BABUR'S LEGACY ON THE  
ADVANCEMENT OF EASTERN  
STATEHOOD AND CULTURE»**

**Tashkent - 2023**

**Chief editor:**

**Shuhrat SIROJIDDINOV,**  
*Doctor of Philology, Professor*  
*Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of*  
*Uzbek Language and Literature*

**Zokirjon MASHRABOV,**  
*Professor*  
*Chairman of Babur International Public Foundation*

**Editorial Board:**

Sirojiddin Sayyid (Uzbekistan), Elisabetta Ragagnin (Italy), Almaz Ulvi (Azerbaijan), Tanju Oral Seyhan (Turkey), Darya Jigulskaya (Russia), Farhad Rahimi (Iran), Vahob Rahmonov (Uzbekistan), Hamidulla Dadaboyev (Uzbekistan), Rukhsana Iftikhar (Pakistan), Islam Jemeney (Kazakhstan), Hamidulla Boltaboyev (Uzbekistan), Kosimjon Sodikov (Uzbekistan), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Ne'matilla Otajonov (Uzbekistan), Nusratulla Jumaxo'ja (Uzbekistan), Abdumajid Madraimov (Uzbekistan), Omonulla Buriyev (Uzbekistan), Sultomurod Olim (Uzbekistan), Ikboloy Adizova (Uzbekistan), Burobia Rajabova (Uzbekistan), Shuhrat Hayitov (Uzbekistan), Odina Jamoldinova (Uzbekistan), Zulkumor Xolmanova (Uzbekistan), Nozliya Normurodova (Uzbekistan), Ziyoda Teshaboyeva (Uzbekistan), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan), Karomat Mullaxujayeva (Uzbekistan), Otabek Juraboyev (Uzbekistan), Marguba Abdullayeva (Uzbekistan), Oysara Madaliyeva (Uzbekistan), Hilola Nazirova (Uzbekistan), Nodirbek Jurakuziyev (Uzbekistan), Sabohat Bozorova (Uzbekistan), Ozoda Tojiboyeva (Uzbekistan), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekistan)

In commemoration of the 540<sup>th</sup> anniversary of Zahir ad-Din Muhammad Babur's birth, a luminary poet, scholar, and statesman, we are pleased to present a compendium of erudite contributions derived from the international academic conference titled "The Impact of Zahir ad-Din Muhammad Babur's Legacy on Eastern Statehood and Culture." This compilation explores various aspects of Babur's life and achievements, including his contributions to literature and scholarship, as well as linguistic and historical investigations. This volume is intended for scholars, researchers, students, and a wider audience interested in Babur's enduring influence on Eastern culture and governance.

*Note: Variations in author views and article titles may exist due to editorial preferences.*

## V SHO'BA. "BOBURNOMA"NING ADABIY-LINGVISTIK VA TARIXIY-SOTSILOGIK TALQINLARI

### PANEL V. THE LITERARY, LINGUISTIC, HISTORICAL AND SOCIOLOGICAL INTERPRETATIONS OF "BABURNAMA"

#### XVI ASR O'ZBEK TILI SO'Z BOYLGIDI TARAQQIYOTIDA BOBURNING O'RNI

Kamolidin Mamadaliyev Raxmatulloyevich\*

##### **Annotatsiya**

Maqolada Boburning XVI asr o'zbek tili so'z boyligi rivoji va taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos ulushi, so'z, so'z birikmalari va istilohlarni qo'llash, ularga turfa ma'nolarni ifodalash vazifasini yuklash mahorati, davr tilida aksini topgan ma'nodoshlik, shakldoshlik, ko'pma'nolilik, ko'chma ma'nolilik singari hodisa yoki jarayonlarni qamrovini yanada kengaytirish, eskirayotgan ko'hna birliklarni faol ishlatish, xalq jonli so'zlashuv tilida mavjud leksik birliklardan unumli foydalanish, Ona tilining imkoniyatlari zaminida yangi so'zlar yasash yo'lida amalga oshirgan sa'y-harakatlari xususida "Boburnoma" matnida qayd etilgan ashyoviy materiallarga suyan holda mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** *Turkiy til, tovush tizimi, leksik-semantik sath, koyne, ma'nodoshlik, o'zlashma, so'z yasash, eskirigan so'z.*

#### BABUR'S CONTRIBUTION IN THE EXPANSION OF THE UZBEK LANGUAGE'S LEXICON DURING THE 16<sup>TH</sup>-CENTURY

##### **Annotation**

In this article, Babur's incomparable contribution to the progress and development of the vocabulary of the Uzbek language during the 16<sup>th</sup> century, and the skill of using words, phrases and terms, assigning them the task of expressing different meanings, expanding the scope of phenomena or processes such as synonyms, homonyms, polysemy, mobile semantics reflected in the language of that period. Active use of outdated units, effective use of existing lexical units in the spoken language of the people, efforts to create new words based on the possibilities of the mother tongue, based on the material recorded and the text of "Baburnama" were discussed.

**Key words.** *Turkic language, sound system, lexical-semantic level, coyne, synonyms, appropriate words, word formation, obsolete word.*

##### **Kirish.**

Buyuk Amir Temurning islo hatchchilik siyosati natijasida shakllangan Ikkinchchi Renesans - Uyg'onish davri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy, ma'naviy-diniy sohalar qatori, tabiiy hamda gumanitar fan yo'nali shlarini ham qamrab oldi. Chunonchi, bir necha yuzyillik shakllanish va rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan

---

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b., kmamadaliyev@mail.ru

turkiy tilning yanada taraqqiy etishi va ravnaqi uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Oqibatda, Durbek, Sakkokiy, Otoiy, Lutfiy, Xo'jandiy, Yaqiniy, Haydar Xorazmiy, Yusuf Amiriy, Saydi Ahmad singari adiblar Ona tilining o'ziga xos boyliklari va imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda bitgan asarlari orqali uni ijtimoiy turmushning deyarli butkul jahbalarida keng nufuzga ega bo'lgan arab hamda forstojik tillari darajasiga ko'tarishdek og'ir vazifani o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan edilar.

Ushbu murakkab, ayni chog'da, sharaflı vazifa o'zbek adabiy tilining asoschisi, o'ttizdan ortiq nazmiy va nasriy ijod namunalari bilan Sharqu G'arbni taxti farmoniga olgan Alisher Navoiy hamda uning izdoshi – atoqli davlat arbobi, iste'dodli sarkarda, Hindistonda barpo etilgan Buyuk Boburiylar sultanatining tom ma'nodagi quruvchisi, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan a'lo darajada uddalanganiga tarix shohid.

"Elining lafzi qalam bilan rost" [Бобир 1960, 60] tilda yozilgan musannafoti nash'u namo topgan Alisher Navoiy hamda akademik V.Zohidov ta'biricha, yolg'iz o'zbek xalqi va madaniyati tarixi ramkasi bilan cheklanmaydigan [Бобир 1960, 52] Boburning zahmatli mehnati va fidokorona sa'y-harakati tufayli eski o'zbek adabiy tili shakllari sezilarli darajada standartlashdi [Благова 1982, 204.], tovush tizimi, so'z boyligi, morfologik va sintaktik qurilishi yanada taraqqiy etdi.

Madaniy shahar koynesi uchun poydevor vazifasini bajargan, buzulmagan, ya'ni boshqa tillarning ta'siriga tushmagan, toza, xalq jonli so'zlashuv tilidan uzoqlashmagan Andijon lahjasida yaratilgan tarixiy, badiiy, ilmiy asarlarida qo'llagan so'z, so'z birikmalari, turli istilohlar misoldida Bobur Ona tili leksik-semantik sathining yana ham kengayishi, taraqqiy etishiga beqiyos ulush qo'shdi.

Fikrni dalillash maqsadida Boburning hozirga qadar o'zbek tilshunosligida lingvostatistik usulga muvofiq tahlilga tortilgan ayrim asarlarida qo'llangan so'zlar sonini yana bir karra ta'kidlash lozim topildi. Olib borilgan hisob-kitoblarga ko'ra, "Boburnoma"da 27970 ta [Холманова 2007, 20-21], "Devon"da 3304 ta, "Mubayyin"da 2616 ta, "Aruz"da 2230 ta leksema ishlatilgan [Иброҳимов 2008, 16].

So'zlashuv va yozma nutq shakillari mos (*rost*) keladigan tilda yozilgan Bobur asarlari, ayniqsa, "Boburnoma"da ifoda tili sifatida o'z qatlamga favqulodda yuqori diqqat qaratilgani muhim ahamiyatga molik. O'z so'z boylik muallifning fikri, uning olam manzarasiga doir kognitiv tasavvuri, borliqqa bo'lgan real munosabati, bahosi, orzu va qiziqishlarini jozibali, bo'yoqli hamda rang-barang uslublarda bayon etishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Sir emaski, har qanday so'zning ifoda ma'nolarini badiiy uslubda to'la-to'kis aks ettirish uni ishlatayotgan shaxsning jamiyat va tabiatda kechayotgan turfa voqeahodisalarni tahlil qilish, tafakkur elagidan o'tkazish, ularni tasvirlashdagi badiiy salohiyati, shuningdek, Ona tili qatori, boshqa tillarga tegishli xususiyatlardan yuqori bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi bilan o'lchanadi.

Garchi, nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyoti tarixida munosib qadrlanuvchi va ardoqlanuvchi, tarixiy-badiiy-memuar xarakterdagi "Boburnoma"ning til xususiyatlari, jumladan, leksik-semantik sathi to'g'risida talay izlanishlar yuzaga chiqqan bo'lsa-da, ushbu qomusiy asar so'z boyligidan o'rinn egallagan birliklarni atroflicha tadqiq qilish, xususan, Boburning so'z tanlash va qo'llash mahorati, muayyan ma'no-mazmunni ifodalashda o'z qatlamning roliga alohida e'tibor bergani, ma'nodoshlik, shakldoshlik, zid ma'nolilik, ko'p ma'nolilik, ko'chma ma'nolilik singari

jarayon hamda hodisalardan ustalik bilan foydalanganini ochib berish bugungi Boburshunoslikning dolzARB masalalaridan sanaladi.

Boburning XVI yuzyillik o'zbek adabiy tili so'z boyligi taraqqiyotiga qo'shgan salmoqli ulushi borasida so'z ketganda, shubhasiz, quyidagi jihatlarni chetlab o'tishning aslo imkoniy yo'q:

1. Adib asarlari, xossatan, "Boburnoma" so'z sandig'ida qadimdan ajodolar tilida faol qo'llanishda bo'lgan, lekin vaqt-zamon o'tishi, chunonchi, sodir bo'lga lingvistik va ekstralingvistik omillar bois ishlatalish darajasi nisbatan susaygan, sekin-asta arxaik-eskirgan qatlam qatoridan joy ola boshlagan birliklarni keng qo'llab, ularni jonlashtirishga erishdi. Masalan Mahmud Koshg'ariyning "Devon"ida "yomonlashmoq, og'ir ahvolga tushmoq" ma'nosini anglatgan (DTS,224) **tersin=**: *Bir-ikki navbat bularniq tersingänini Muhib Ali qurči va Xalifa bilä Mullä Babağa aytur* (281) va **yağıq=** "dushmanlashmoq, g'animlik qilmoq" (DTS,224): *Moğullar tahqiq yağıqmačiq boldilar* (281) so'zlari shular sirasidandir. Bunday so'zlar qatoriga **buš=** "zarar yetkazmoq" (125), **buldur=** "ilojini topmoq" (125), **kezlä=** "ovlamoq, ov qilmoq" (128), **bútkär=** "tiklamoq, oldingi holiga keltirmoq" (216), **itärči** "lochin qushi asrovchi" (161), **atiq=** "dong taratmoq, shuhrat topmoq, nom chiqarmoq" (93) singari ko'pgina so'zlarni kiritish mumkin.

2. Ona tili lug'at taribidan o'rIN olgan u yoki bu so'zga yangi ma'nolarni ifodalash vazifasini yuklatib, ularning semantik doirasini ancha kengaytirdi. Chunonchi, "burmoq, qaytarmoq; to'nkarmoq, ag'darmoq" ma'nosini bildirgan **evúrfe'lidan** hosil qilingan **evrúš-** so'zini "to'planmoq, yig'ilmoq" (118), "nozik, tor"ma'nosida eski turkiy tilda qayd etilgan **yinčkälig** yasamasini **inčkalıq** shaklida qo'llab, "noziklik, quvlik" ma'nosini bildirishga yo'llagan. "Urug', qavm, omma" semasi qadimgi turk tilida **bod** (VII-X), ilk eski turkiy tilda (XI-XII) **boz//boy** leksemasi yordamida anglashilgan. Bobur ko'hna **boy** so'ziga "hukmdorning yaqinlari, qarindoshlaridan tuzilgan maxsus harbiy bo'linma" ma'nosini ifodalash vazifasini yuklagan (273).

3. Bobur o'zidan oldin Ona tilida ijod qilgan adiblar ijodida qayd etilmagan qator so'z va istilohlarni muomalaga olib kirdi. Alalxusus, **tolğama** 1."yog'i, dushman qo'shini qanotlarini aylanib o'tib, ortdan unga zarba berish usuli"; 2." shu usulni bajaruvchi otliq harbiy qism" (145), **qadağan** "tezlikda, shoshilinch" (124), **farangibāz** "yevropacha to'pni otuvchi, to'pchi", **çoğulluq** "chaqimchiliq, g'iybat" (122), **qazaqılıq** "sarson-sargardonliq, mashaqqat, azob-uqubat" (BN,122), **çaqar** "shahar tashqarisidagi qo'rg'on" (166), **aşlıqči** "oziq-ovqat, yem-xashak keltirishga tayinlan otliq guruh" (126), **qazan** "ulkan hajmli to'p, zambarak" (345) kabi so'z va istilohlar yuqorida ta'kidlangan mulohazani isbotlash uchun yetarli.

4. Ona tilining so'z yasash imkoniyatlari asosida Bobur yangi leksik birliklar va so'z birikmalarini yasash, ularni keng ishlatalishga muvaffaq bo'ldi: **iliklä-** "egallamoq, zabit etmoq, qo'lga kiritmoq" (118), **bisarlıq** "beboshlik, boshsizlik" (183), **čapqunči** "talon-toroj, g'orat bilan shug'ullanuvchi otliq bo'lim" (212), **yığnaq** "yig'in, kengash, mashvarat" (221) va h.k.

5. Jonli so'zlauv tilidan yuqori darajada habari bo'lga Bobur uning boyliklaridan asarlari, jumladan, "Boburnoma"da unumli istifoda etgan: **osan-** "bezmoq, zerikmoq, pushaymon bo'lmoq" (73), **uy** "sigir, qoramol" (81), **mūnūz** "shox" (BN,81), **qop=** "o'rindan tumoq, qo'zg'almoq" (89), **ališ-** "ayirbosh qilmoq,

almashmoq" (94), **boğuz** "yem-xashak" (119), **yeynä** "openning eri, pochcha" (121) va sh.k.

6. Adib muayyan ma'noni anglatishda tez-tez ma'nodoshlik qatorlariga murojaat qilgan va o'zbek tilining sinonimlarga na qadar boyligini ashayoviy misollar bilan ro'y-rost ko'rsatgan. "Boburnoma"da aks etgan sinonimik uyalarning o'ta ko'pligi, ular alohida tadqiqot mavzusi bo'lishi zarurligini urg'ulagan holda, faqat "so'zlovchi yoki kuzatuvchining turgan joyidan, yonidan, nazaridan uzoqlashmoq, nari ketmoq, naridagi joy, manzil tomon harakat qilmoq, jo'namoq, yo'l olmoq" (O'TIL, I, 132) sememasini ifodalash uchun Bobur 14 ta so'z va so'z birikmalari ishlatganini ochiqlash bilan kifoyalanamiz. Ushbu ma'nodoshlik qatorining 10 tasini asl turkcha: **bar**= (114), **yan**= (92), **atlan**= (277), **köč**= (91), **tebrä**= (277), **tart**= (92), **yüzlän**= (94), **yür**= (96), **qop**= (94), **čiq-**= (63), to'rttasini esa arabcha **azimat** "safarga jo'nash", **murājaat** "jo'nash, yo'l olish, otlanish", **mutavajjih** "yuz tutgan, yo'nalgan, ravona bo'lgan" hamda **safar** "yo'lga chiqish, jo'nash" o'zlashmalarining **bol**= va **qil**= yordamchi fe'l leksemalar bilan sintagmatik munosabatga kirishi natijasida voqelangan **azimat qil**= (252), **murājaat qil**= (96), **mutavajjih bol**= (104), **safar qil**= (124) so'z birikmalari tashkil qilgan.

7. Til boyligining faqat so'zlar, istilohlar, iboralar soni bilan emas, balki ularning leksik ma'nolari miqdori bilan ham o'lchanishini yaxshi anglagan Bobur so'zlarning ko'pma'noliligi hodisasiga tilning cheksiz imkoniyailarini o'zida mujassam etgan xazina sifatida qaragan. Adib asarlari, xususan, "Boburnoma" matnida qayd etilgan hodisaning qanday darajada reallashganini tub turkcha **qalın** leksemasi misolida ko'rib chiqish bilan cheklanamiz.

Qadimgi turkiy til (VII-X) va ilk eski turkiy til (XI-XII) manbalarida 1. "ko'p miqdordagi"; 2. "gala; guruh, omma, to'da"; 3. "ulkan, baland, qalin" (yupqa so'zining antonimi) ma'nolarida qo'llangan (DTS,411) **qalın** so'zi "Boburnoma"da 1."quyuq, zich": *Ilämiš daryāsiñiñ yaqinidağı qalın čängällärdä buğu, maral va tonğuz köp bolur* (128); 2. "mo'l, ko'p": *Uşaqq-uşaqq čängällärdä qırğavul va tavuşqan qalın bolur* (128); 3. "sonsiz, hisobsiz, miqdori ko'p": *Ul vilāyatlarda mundaq qalın aq yarmaqni hargiz körüngän emäs edi* (275); 4. "bir-biriga yaqin joylashgan": *Uluğ kenti Čarxdur. Čarxniñ bāğati qalindur* (195); 5. "ulkan, katta": *Bir navbat Xurāsān ústigä qalın čerig qoşub yibärmäk ham xayāl qılğandur* (238); 6." ko'ndalang o'lchovi katta (yupqa leksemasining ziddi): *Yänä kärgdür. Terisi bisyār qalın bolur* (345). Shu o'rinda, badiiy-memuar asarda **qalın** so'zining **köp**, **binihāya**, **bihad**, **bisyār** leksemalari bilan birga ma'nodoshlik qatorini shakllantirganini urg'ulash qatori, hozirgi o'zbek adabiy tilida **qalın qor** birikmasining "ko'p, mo'l qor" ma'nosini anglatishi (O'TIL,II,545), zikr etilgan semanining "Boburnoma" matnida **uluğ qar** birikmasi yordamida ifodalanganiga diqqat qaratish lozim: *Āgärči uluğ qardin nečä kün xili tašviš kördük* (258).

8. Bobur aksariyat qaysidir so'zni nafaqat birlamchi, shuningdek, ko'chma ma'noda qo'llash masalasiga ham alohida e'tibor bergan. Mazkur fikrni "Boburnoma"da "biror manzil tomon yo'l olmoq" ma'nosida bot-bot kuzatiladigan **bar**= so'zining ma'joziy "vafot etmoq, dunyodan ko'z yummoq" semasini anglatish maqsadida ishlatganini ta'kidlash bilan kifoyalanamiz: *úč-tört kúndin keyin oşul zaxmat bilä-oq bardī* (123). Kezi kelganda **bar**= leksemasining "tushmoq, tushub ketmoq, cho'kmoq" ma'nosida ham qo'llanganini e'tirof etish kerak bo'ladi: *Čini piyāla va qaşuq va dāira suvğa bardī* (307).

**Xulosa.** Tug'ilganining 540 yilligi O'zbekiston va chet ellarda ham yuqori maqomda nishonlanayotgan Zahiriddin Muhammad Boburni XVI yuzyillik o'zbek tilining mavjud va mashhur sathlari rivoji hamda taraqqiyotiga ko'r va xo'b ulush qo'shgan benazir shaxs sifatida ardoqlash, alqash qatori, u kishi qoldirgan boy adabiy, badiiy, tarixiy merosni zamon talablariga javob beradigan tarzda tizimli o'rganish, chuqur tadqiq etish Uchinchi Renessansni barpo etish yo'lida tolmay mehnat qilayotgan o'zbek ziyolilar, xususan, tilchilarning burchi sanaladi.

**Shartli qisqartmalar:**

ДТС-Древнетюркский словарь. 1969. Ленинград: Наука.

ЎТИЛ- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1981. I-II. Москва: Русский язык.

## “БОБУРНОМА”ДА ҚОЗОҚ, ҚОЗОҚЛИК ВА ТУРКИЙ ЭЛ ҲАҚИДАГИ ҚАРАШЛАР

Ислам Жеменей \*

### Annotations

Мақолада “Бобурнома”да зикр этилган қозоқ, қозоқлик атамалари, улар қайси маънода, қай мақсадда қўллангани аниқ мисоллар асосида таҳлил этилган. Бундан ташқари, “туркий эл” маъносини англатган “алаш” атамаси, унинг этимологияси, асарнинг қайси ўринларида тилга олингани ҳақида фикр билдирилган. “Бобурнома”нинг нафақат ўзбек халқи, балки бутун туркий миллат учун илмий-маърифий, тарихий-адабий қиммати баланд экани ҳақидаги хулосага келинган.

**Kalit so'zlar:** туркий тил, қозоқ, қозоқлик, алаш, таржима, талқин.

## VIEWS ON KAZAKH, KAZAKH AND TURKISH ELEMENTS IN BOBURNOMA

### Annotation

The article analyzes the Kazakh and Kazakh terms mentioned in "Baburnama", in what sense and for what purpose they are used on the basis of specific examples. In addition, the term "Alash" meaning "Turkish country", its etymology, and the places of the work where it is mentioned are expressed. It was concluded that "Baburnama" has a high scientific-educational, historical-literary value not only for the Uzbek people, but also for the entire Turkic nation.

**Key words:** *Turkish language, Kazakh, Kazakh, translation, translation, interpretation.*

Қазақ туралы жазған тағы бір жәдігер – әйгілі «Бабырнама» кітабы. Бұл кітаптың авторы – Зәһиреддин Мұхаммед Бабыр (1483-1530). Ол өз еңбегінде көріп, естіген, оқығандарын және 1493-1529 жылдар аралығындағы тарихи оқиғаларды жылнама түрінде қамтып, өшпес мұра етіп қалдырған. «Бабырнаманы» түркі тілінде жазған. Еңбек өте құнды болғаны үшін парсы һәм

\*Ал-Форобий номидаги Қозоқ Миллий университети Турон-Эрон илмий тадқиқот маркази директори, филология фанлари доктори, профессор, jemeneyislam@yahoo.com

<b>Usmon QOBILOV.</b> Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatida mumtoz an'anaviy obrazlar talqini	<b>275</b>
<b>Dilnavoz YUSUPOVA.</b> Aleksandr Mixaylovich Shcherbak - "Aruz risolasi"ning tadqiqotchisi	<b>278</b>
<b>Orzigul HAMROYEVA.</b> Bobur ruboilyarida vazn va qofiya uyg'unligi	<b>285</b>
<b>Aida BUMATOVA.</b> "Boburnoma"dagi she'riy namunalar tarjimasida obrazlar	<b>289</b>
<b>Şəhla MƏCIDOVA.</b> Babur poeziyasında sevgi qasidi səba	<b>293</b>
<b>Jamila EISAR.</b> Bobur she'riyatida folkloрning o'rni	<b>294</b>
<b>V SHO'BA. "BOBURNOMA"NING ADABIY-LINGVISTIK VA TARIXIY-SOTSIOLOGIK TALQINLARI</b>	
<b>PANEL V. THE LITERARY, LINGUISTIC, HISTORICAL AND SOCIOLOGICAL INTERPRETATIONS OF "BABURNAMA"</b>	
<b>Kamolidin MAMADALIYEV.</b> XVI asr o'zbek tili so'z boyligi taraqqiyotida Boburning o'rni	<b>298</b>
<b>Islam JEMENEY.</b> "Boburnoma"da qozoq, qozoqlik va turkiy el haqidagi qarashlar	<b>302</b>
<b>Дарья Жигульская.</b> «Бабур-наме» как исторический источник в исследованиях профессора Т.И. Султанова	<b>310</b>
<b>Muhittin GÜMÜŞ.</b> Türkiye'de Bâbürnâme Üzerine Çalışmalara Kısa Bir Bakış	<b>314</b>
<b>Zulkumor XOLMANOVA.</b> Bobur – semantikaning sohir bilimdoni	<b>325</b>
<b>Muhterem SAYGIN.</b> Zahîrüddin Muhammed Bâbürün Hatıratında Ali Şîr Nevâyî'nin Sosyal Çevresi ve Kişiliği	<b>332</b>
<b>Rukhsana Iftikhar.</b> Socio-Cultural Legacies of Central Asia in Tuzuk -i-Baburi	<b>337</b>
<b>Akramjon DEHQONOV.</b> "Boburnoma"da Boburga zamondosh temuriy hukmdorlar portretining yaratilishi	<b>344</b>
<b>Байболот АБЫТОВ.</b> «Бабур намә» как комплексный источник по истории востока: преимущества и проблемы	<b>349</b>
<b>Muxtor MIRZOAHMEDOV.</b> "Boburnoma"da ma'muriy-boshqaruв tizimiga doir huquqiy atamalarning qo'llanishi	<b>356</b>
<b>Omonullo BO'RIYEV.</b> "Boburnoma"da Hirotning tarixiy-geografik tavsifi	<b>361</b>
<b>Батырхан БОЛАТБЕК, Кастер САРҚЫТКАН.</b> Великие наследие тюркского мира – Бабырнама и казахская духовность	<b>366</b>
<b>Махмадшо МАХМАДШОЕВ.</b> Taçassumi shaxsиятҳои адабӣ, илмӣ ва хунарӣ дар "Бобурнома"-и Заҳируддин Муҳаммад Бобур	<b>373</b>
<b>Ilhom ASLONOV.</b> "Boburnoma" kompozitsiyasi va uslubida muallif psixologik holatlarining aks etishi	<b>384</b>
<b>Elmira HAZRATQULOVA.</b> Tarixiy asarlarda valiylargalı munosabat	<b>389</b>
<b>Mahliyoxon TUXTASINOVA.</b> Bobur asarlarining L. Budagov lug'atida aks etishi	<b>401</b>

**ILMIY NASHR**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MERO SINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI**

**uluslararo ilmiy-nazariy  
konferansi materiallari**

**Toshkent - 2023**

**Nashriyot litsenziyasi № 2044, 25.08.2020 y.  
“Times new roman” garniturasi, kegli 14. Offset  
bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog`i 35,9.  
Adadi 100 dona. Buyurtma №101**

**Zebo prints MCHJda chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahar, Yashnobod tumani  
58-A harbiy shahrcha.**